EKZISTENSIALIZMNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI: BIRINCHI JAHON URUSHIGACHA BO'LGAN FALSAFIY INQIROZ VA INSON MUAMMOSI

Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekzistensializmning birinchi jahon urushi va ungacha bo'lgan davrdagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Yevropa jamiyatida yuz bergan ma'naviy inqiroz va natijada insonning mavjudligidan ma'no izlash muammosini yuzaga kelganini yoritadi. S.Kyerkegor, F.Nitsshe va M. Xaydegger kabi faylasuflarning shaxs erkinligi, iroda, tanlov, tanlov uchun javobgarlik singari g'oyalarining ekzistensial tafakkur shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ekzistensializmning urushdan keyingi rivojiga zamin bo'lgan g'oyaviy va nazariy asoslarni aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Ekzistensializm, erkinlik, erkin tanlov, mavjudlik, ekzistensial g'oyalar*

Kirish

Ekzistensializm– (existense – mavjudlik) XX asrdagi ana shu nomdagi falsafa asosida vujudga kelgan modernistik oqim. Uning asosida inson hayotining ma'nosi, shaxs erki va mas'uliyati muammolari turadi. Adabiy oqim sifatida ekzistensializm borliq va insonning g'aroyib sirli-sehrli jihatlari xususida bahs yuritadi. Ushbu adabiyot namunalarida insonning jamiyatga begonaligi, yolg'izligi, mahkumligi muammosi ko'tariladi .

Asosiy qism: Ekzistensializm falsafiy oqim sifatida XX asr boshlarida vujudga kelgan bo'lsada insonning mavjudligi muammosini o'rganish va inson muammosi g'oyalarining kelib chiqishi XIX asrga borib taqaladi.

1-ilova

Ekzistensializmning rivojlanish bosqichlari

Bosqich	**Vaqt va makon**	**Namoyondalar**
I	1840-yillar Daniya	Soren Kyerkegor
II (Birinchi jahon urushi va urushdan so'ng)	1880-1940-yillar Germaniya	Fridrix Nitsshe, Martin Buber, Karl Yaspers va Martin Xaydegger
III (Birinchi jahon urushi)	1914-1918-yillar Rossiya	Nikolay Berdyayev, Lev Shestov
IV (Ikkinchi jahon urushi)	1940-1950-yillar Ispaniya, Italiya, AQSH	X.Ortega-i-Gasset, N.Abbanyano, E.Pachi, U.Louri, U.Barret,Dj.Edi

V (Ikkinchi jahon urushi va undan so‘ng)	1930-1970-yillar Fransiya	Albert Kamyu, Gabriel Marsel, Simone de Bovuar, Moris Merlo-Ponti va Jan-Pol Sartr

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan faylasuflar ekzistensializmning nazariy va g‘oyaviy asoslarini paydo bo‘lishi, rivojlanishi va takomillashuviga hissa qo‘shgan bo‘lsalar, Kafka, Mark Avreliy, F.Dostayevskiylarning ijodi badiiy adabiyotda ham ekzistensial g‘oyalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Ekzistensializmning otasi- Soren Kyerkegor (1813-1855) ilk ekzistensial g‘oyalarni ilmiy shaklda o‘z nazariyasida ilgari surdi va shuni ta’kidlash joizki, u o‘zini ekzistensialist deb atamagan, sababi ekzistensializm atamasi yuqorida keltirilganidek XX asrda paydo bo‘lgan. Tarixga nazar tashlasak, ekzistensializmni paydo bo‘lishi va rivojlanishiga jahon urushlari va undan keyingi talofat va inqirozlar sabab va turtki bo‘lgan, biroq hayratlanarlisi shundaki, ekzistensializmga tamal toshini qo‘ygan Soren Kyerkegor jahon urushlaridan oldin hayot kechirgan va ularga guvoh bo‘lmagan. Tabiiy savol tug‘iladiki, Kyerkegorda ekzistensial g‘oyalarni ilgari surishga nima sabab bo‘lgan. Uning hayotidagi ikki inson: otasi Maykl Kyerkegor ekzistensial g‘oyalarni shakllanishida va sevgilisi Regina Olsen ushbu g‘oyalarning real hayotida namoyon bo‘lishida asosiy va muhim rol o‘ynaganlar. Kyerkegorning otasi xristian diniga qat’iy amal qiladi, gunoh va najot tushunchalarini Kyerkegor ongiga bolaligidan tinimsiz singdiradi. U yoshligidan inson tug‘ilgandan boshlab gunohkor, najotga, kechirilishga chuqur tavba va uzoq ichki kurash orqali erishadi, inson erkin tanlov qila oladi, lekin o‘z tanlovi uchun o‘zi javobgar degan g‘oyalar ta’sirida voyaga yetdi. Natijada Kierkegor erkinlikdan qo‘rqa boshladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, negaki uning qarashlariga ko‘ra erkinlik (free will) gunoh qilish imkoniyatini beradi, bu imkoniyat esa insonni tashvishga (anxiety/angst) yetaklaydi. Aynan shu qo‘rquv uni hayotda yolg‘iz yashashga undadi, unda sevgan ayoli Regina Olsen bilan baxtli yashash imkoniyati bor edi, lekin u nikohni umumiy hayot deb talqin qildi va yolg‘izlikni tanladi. Chunki, Kyerkegor inson yolg‘iz tanlaydi, yolg‘iz o‘zi tanloviga javobgar va Xudoni oldida yolg‘iz turadi degan qarashlarga qat’iy ishongan. Uning bu falsafiy qarashlari “Either/Or”(1843), “Fear or Trembling” (1843) va “The Sickness Unto Death” (1849) asarlarida o‘z aksini topgan va uning g‘oyalari keyingi davr ekzistensialistlariga ta’sir ko‘rsatgan.

XIX asrning antiklassik falsafasiga inson muammosini olib kirishda mashhur nemis faylasufi Fridrix Nitsshening (1844-1900) xizmatlari beqiyos edi. Kierkigor singari u ham o‘zini ekzistensialist deb atamadi, biroq uning falsafiy konsepsiyasida ekzistensialistik ruh sezilib turadi. XIX asr Yevropada ratsionalizm kuchaydi, ilm -fan sezilarli rivojlanandi va diniy tushuncha va qarashlar shubha ostiga olindi. Nitsshe jamiyatda sodir bo‘layotgan ushbu an’analarning qadrsizlanishi, dinning yemirilishi va natijada hayotdan mutloq ma’noning yo‘qolib borayotganidan xavotirga tushdi va o‘zining asarlarida insoniyatni yangi qadriyatlar yaratishga undadi. U o‘zining “The Gay Science” (“Quvnoq Bilim”) (1882) hamda “Thus Spoke Zarathustra” (“Zardusht Tavollosi”) (1883-1885) asarlarida quyidagi metaforik jumlani keltiradi:

“God is dead. God remains dead. And we have killed him.”

“Xudo o‘ldi. Xudo o‘lik holda qolmoqda. Va uni biz o‘ldirdik.”

Bundan jamiyat ongida dinning va Xudoning kuchsizlanib yo‘qolib borayotganini, ilm-fan va aql-idrokning rivojlanib borishi buning sababi ekanligini tushunib olishimiz mumkin. F.Nitsshe “Bevaqt qoralamalar”, “Insonga xos, haddan

tashqari insonga xos”, “Quvnoq bilim”, “Achchiq hikmat”, “Zardusht tavallosi”, “Yaxshilik va yomonlikning narigi tarafida”, “Ollohning kelib chiqishi”, “Sanamlarning shomi”, “Dajjol” kabi falsafiy-adabiy asarlarida inson to‘g‘risidagi Yevropaga xos yangi fikr-mulohazalarni bayon etdi. Shunday qilib, Seren Kyerkegor va Fridrix Nitsshe qarashlari XX asr ekzistensializm falsafasining vujudga kelishida nazariy asos vazifasini bajardi.

Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari deyarli butun dunyo insoniyati ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ekzistensializm ham shu murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonning hosilalaridan biri sifatida alohida rivojnala boshladi. Ekzistensializm falsafasi Rossiyada Nikolay Berdyayev (1874 – 1948) va Lev Shestovlarning (1866 – 1938) insonning mavjudligi mantiqiy zaruratlardan ustun degan ontologik qarashlarida namoyon bo‘la boshladi. Antiklassik falsafa, xususan, ekzistensializm an'analarini yangi bosqichga ko‘tarishda rus faylasufi N.A.Berdyaevning xizmatlari salmoqli edi. XX asr boshlaridagi avtoritar tuzum, shaxsga obyekt sifatida qarash va shaxsning davlat, jamiyat va mafkura tomonidan ezilishiga guvoh bo‘lgan N.Berdyayev insonning mavjudligi majburiyatlarga emas balki erkin tanlov va erkinlikka asoslanishi kerakligini ta’kidlaydi. Keyinchalik Berdyayevning erkin tanlov va erkinlik tushunchalari ekzistensializmning asosiy tamoyillaridan biriga aylanadi. U “The Destiny of Man” (1931), “Freedom and the Spirit” (1927), “Slavery and Freedom” (1939), “The Beginning and the End” (1947) kabi asarlarida erkinlik, ijod orqali Xudoga yaqinlashish va shaxsni markaziy o‘ringa qo‘yadi. L.Shestov esa “All Things are Possible” (1905), “In Job’s Balances” (1929), “Athens and Jerusalem” (1938) va “Speculation and Revelation” (1923) kabi falsafiy asarlari markazida aqlning chegaralanganligi va haqiqatga va hayotning ma’nosiga faqatgina mustahkam imon bilan erishish mumkin degan g‘oyalar turadi. Shu tomonlama u ekzistensializmning diniy yo‘nalishiga katta hissa qo‘shdi. N.Berdyayev va L.Shestovlarni umumlashtirib turuvchi jihati shundaki, ikkala ijodkor ham Oktabr inqilobidan keyin jamiyatdagi siyosiy tuzum sabab o‘z vatanlarini tark etib, Fransiyada muhojirlikda ijod qilib shu yerda vafot etishgan. 1920-1930-yillar Parijda Rossiya muhojirlari guruhi shakllandi, buning sababi Fransiya ijodkorlarga erkin fikrlash va o‘zlarining falsafiy g‘oyalarini xalqaro miqiyosida tarqatish imkoniyatini berdi.

Xulosa

Birinchi jahon urushi oldidan eksiztensializm falsafasining rivojlanishi muhim bosqichni tashkil etadi, garchi bu oqimning rasmiy nomlanishi va tizimlashtirilishi keyinroq sodir bo‘lgan bo‘lsa-da. Ushbu davrda eksiztensialistik g‘oyalarning asoslari shakllangan. Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda shakllangan eksiztensialistik g‘oyalar keyinchalik 20-asr falsafasining muhim oqimiga aylanish uchun zarur intellektual asosni yaratdi. Bu g‘oyalar Birinchi jahon urushidan keyingi davrda, ayniqsa Ikkinchi jahon

urushidan keyin, to‘liq shakllangan falsafiy tizimga aylangan holda rivojlandi va keng tarqaldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘rayeva, D., & Quvvatova, D. “Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati”. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. 37 bet.
2. Зотов А.Ф., Мельвин Ю.К. Буржуазная философия серединн XIX начала XX века. М. 1988, 287-331-betlar.
3. Сумерки богов. (Ницше Ф., Фрейд З., Камю А., Сартр Ж.П.) М., 1989.
4. Choriyev A. Inson falsafasi. Toshkent, 2007. 355-bet.
5. Po‘latova D.A., Ro‘zmatova G.M. G‘arb falsafasi tarixi. Toshkent, 2018